



## INGLIZ TILI DARSLARIDA OG‘ZAKI NUTQNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI

Ergasheva Aziza Erkin qizi

*GulDU, "Xorijiy til va adabiyoti" (Ingliz tili) ta'lim yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada hozirgi globallashuv davrida eng dolzarb mavzulardan biri bo'lgan xorijiy tillarni o'rgatishning sermahsul usullari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, qo'shiqlar orqali talabalarning og'zaki nutqini rivojlantirish borasidagi mulohazalar bayon etilgan va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit zo'zlar:** qo'shiqlardan foydalanish, janr, guruh, ta'sirchan vosita, tarbiyaviy ahamiyatga ega, shakllantirish va rivojlantirish.

Xalqaro hamjamiyatda o'z o'rnini topayotgan va buyuklikka intilayotgan mamlakat uchun horijiy tillarni mukammal bilgan muttaxassislarga ega bo'lish nihoyatda muhimdir. Shu bois ham, biz ingliz tili darslarimizda ilg'or pedagogik texnologiyalardan, interfaol va noan'anaviy usullardan, informatsion hamda innovatsion texnologiyalardan foydalanishimiz shartdir.

Ingliz zabon bo'lmagan muhitda o'quvchilarni og'zaki nutqini rivojlantirish ancha murakkab vazifadir. Bu muammoni hal qilish uchun o'qituvchilardan darslarda turli usullardan foydalanish talab etiladi.

Mazkur maqolada biz darslarda qo'shiqlardan foydalanish va ularning afzallik tomonlari haqida fikr yuritmoqchimiz. Qo'shiqlarni til o'rgatishda ta'sirchan vosita sifatida qabul qilish mumkin. Qo'shiqlar talabalarning fonetika, grammatika, leksika sohasidagi bilimlarni mustahkamlash bilan birga og'zaki nutqini ham rivojlantiradi.

Qo'shiqlar darsda qo'llanilganda turli vazifani bajaradi: 1) Ular darsda inglizcha gapirishga undaydi, chunki talabalar qo'shiq, uning janri, ijro etgan guruh yoki xonanda va ularning repertuarlari haqida muhokama olib borishadi. 2) Ular til o'rganishga ijobiy yondoshishga sabab bo'ladi, chunki aynan 16-17 yoshdagilarga maqul keladigan qo'shiq eshittirilsa, qo'shiq ularni zavqlantiradi va bu ularni o'rganayotgan tiliga qiziqishini kuchaytiradi. 3) Qo'shiqlar talabalarga tili o'rganilayotgan mamlakatning musiqasi va madaniyatini tanishtirish bilan birga, mahalliy aholi tushinishi oson, lekin xorijliklarga qiyinchilik tug'diradigan so'zlarni anglab olishga imkon beradi. 4) Qo'shiqlar talabalarni, san'at sohasidagi didlarini yuksaltiradi, tinglagan qo'shiqqa tanqidiy baho berishga va shu bilan birga ingliz tili darslarida qanday qo'shiqlardan foydalansa samaraliroq natija berishini o'rganadi.

Shuni takidlash kerakki, darsda qo'llanilgan qo'shiq tinglovchilarni hammasiga yoqadigan va shu bilan birga tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi shart. «Bittlz» guruhi qo'shiqlari yuqorida ta'kidlangan talablarga javob bera oladi. Bundan tashqari mazkur guruh ijro etgan qo'shiqlar pop musiqasiga shinavanda yoshlarga ham, yoshi ulug'larga ham birdek yoqadi.



Talabalarni og'zaki nutqini qo'shiqlar orqali rivojlantirish uch bosqich:  
tayyorgarlik, shakllantirish va rivojlantirishdan iborat bo'ladi.

Birinci, ya'ni tayyorgarlik bosqichi monologik nutqni rivojlantirishga qaratiladi. Bu bosqichda talabalar «Bittlz» va shunga o'xshagan xorij yoki mahalliy guruhlar tarixini o'rganadi, musiqa yo'nalishlariga oid kichik matnlarni tarjima qiladi va gapirib beradi. Bunday amallar faqat gapirish, tarjima qilish, ma'lumot olishga emas, balki ilm o'rganuvchilarni so'z boyligini ham kengaytiradi.

Ikkinchi bosqichning asosiy maqsadi, og'zaki nutqni shakllantirishga qaratiladi va bu quyidagi ettita ketma – ketlikda amalga oshiriladi: 1) qo'shiq taqdim etilishidan oldingi vazifalar, 2) qo'shiqni eshitish, 3) qo'shiq taqdimotidan oldingi savollarga javob qaytarish, 4) qo'shiq taqdimotidan keyingi savollarga javob berish, 5) qo'shiq matnini yozma bayon etish, 6) qo'shiqni qayta tinglash, 7) qo'shiqni muhokama qilish.

Masalan: «Bittlz» ijro etgan «Yesterday» qo'shig'i ustida quyidagi amallarni bajarish mumkin. Qo'shiq taqdimotidan oldingi savollar: What is the song about? What feelings does it evoke? Qo'shiq tinglagandan keyingi savollar: How do the melody and lyrics evolve? What can you say about the singer's way of singing? What instruments accompany singer's voice? Whose image is created in the song? What kind of love is depicted in the song? Yuqorilardagidan tashqari talabalarni gapirishga undovchi ko'plab savollar berish mumkin.

Uchinchi bosqich, talabalarning og'zaki nutqini rivojlantirishga qaratilgan. Bu bosqichda talabalarga darslarda qaysi usuldagi qo'shiqlarni qo'llash mumkinligi o'rgatiladi va quyidagi muammoli masalalarni muhokama qilishga e'tibor qaratiladi. Should a person understand only one musical genre or different kinds? Some people say that rock (jazz) music promotes juvenile delinquency. Do you agree? va hokazo.

Yuqorida keltirilgan usullarni qo'llashda o'qituvchilarga quyidagilarni tavsiya qilamiz: tanlagan qo'shig'ingiz muhokama qilishga arziydigan bo'lsin; bastakor va qo'shiqchilar haqida qiziqarli matnlar tayyorlang; qo'shiqni oldin o'zingiz tinglab, beriladigan savollarni tayyorlab oling; ingliz yoki o'zbek qo'shiqchilari, bastakorlari to'g'risida talabalar bilan suhbat quring; darsni qiziqarli o'tkazish uchun uni rejasini ishlab chiqing.

Vazifalar namunasini quyidagicha tashkil qilish mumkin:

**Task 1.** These occupations are related to music. Consultant English – English dictionary for their meaning: composer, listener, conductor, music publisher, music producer, instrument manufacturer, singer, musicologist, ethnomusicologist, music arranges, technician in a recording studio. **Task 2.** Listen to the song (choose any song you like) and determine the mood the song evokes. Use the following adjectives about the voice of a singer: deep, gentle, soft, fresh, clear, lyrical, expressive, velvety, small, quiet, nasal, guttural, hollow, resonant, gruff, harsh, husky, mellow, metallic, weak, etc. **Task 3.** Use the words of the task 2 and describe the voice of the singer you know.

Agar qo'shiqlar klip shaklida bo'lsa, klipdagi manzara, qahramonning harakati, tashqi ko'rinishi, tasvir ranglari va boshqa hususiyatlari haqida ham munozaralar, muhokamalar o'tkazish imkoniyatini beradi.



Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, darslarda qo'shiqlar qo'llanilishi og'zaki nutqni rivojlantirishga qaratilgan maqsadimizni amalga oshirishga samarali natija beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hamdamov. E. E. The content of the language professional-gnostic training of an English teacher. Bulletin of Gulistan State University, 2021
2. Richards J.C. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge Univ. Press. 2008. – 269 p.
3. Richards J.C. Communicative Language Teaching Today. – Cambridge Univ. Press. 2000. – 46 p.
4. Ergashevich, H. E. (2022). Bo'Lajak Ingliz Tili O'Qituvchisining Kasbiy-Gnostik Kompetensiyasi Va Uning Didaktik Ahamiyati. Miasto Przyszłości, 25, 302–304. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/378>